



## SOLIQ MA’MURIYATCHILIGINI SODDALASHTIRISH ORQALI BUDJET-SOLIQ SIYOSATI SAMARADORLIGINI TA’MINLASH MASALALARI

**Bozor TUXLIYEV<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>ISFT i.f.d., professor

**Abror SHAYMARDANOV<sup>2</sup>**

<sup>2</sup>ISFT xodimlar malakasini oshirish bo'yicha bosh mutaxassis

KALIT SO‘ZLAR	ANNOTATSIYA
Soliqqa tortish, soliq ma’muriyatchiligi, tadbirkorlik, soliq barqarorligi.	Maqolada O‘zbekistonda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda soliq ma’muriyatchiligi samaradorligini oshirishga katta e’tibor qaratilishi lozimligi e’tirof etilgan bo‘lib, soliq munosabatlari ishtirokchilari o‘rtasida interaktiv xizmatlar orqali munosabatlarni boshqa yangi darajaga ko‘tarishda muhim jihatlarni o‘rganish zarurligi qayd etilgan.
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА	АННОТАЦИЯ
Налогообложение, налоговое администрирование, предпринимательство, налоговая стабильность.	В статье отмечается, что следует уделить большое внимание повышению эффективности налогового администрирования в обеспечении стабильного социально-экономического развития Узбекистана, изучить важные аспекты вывода отношений на новый уровень посредством интерактивного сервиса между участниками налоговых отношений.
KEY WORDS	ABSTRACT
Taxation, tax administration, business, tax stability.	The article notes that great attention should be paid to improving the efficiency of tax administration in ensuring stable socio-economic development of Uzbekistan, to study important aspects of bringing relations to a new level through an interactive service between participants in tax relations.

O‘zbekistonda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda soliq ma’muriyatchiligi samaradorligini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Dunyoning iqtisodiyoti rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlari rivojlanish jarayonlari tahlili jamiyatning barcha bo‘g‘inlarida doimiy ravishda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimi o‘rganilib borishi hamda tadqiqotlar natijalari asosida izchil islohotlar amalga oshirilishi zarurligini ko‘rsatadi. Har qanday davlatning budjet-soliq siyosati xazinaga mablag‘ to‘plash bilan birga iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga ham xizmat qilishini ta’minlashi zarur. Shuning uchun mamlakatimizda davlat budjet-soliq siyosatini ishlab chiqishda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Natijada yildan-yilga iqtisodiyotda tadbirkorlik subyektlari sonining o‘sishiga erishildi va 2024-yilning 1-iyun holatiga ushbu ko‘rsatkich 860 mingdan ortiqni, faoliyat yuritayotganlarining soni esa 556026 tani tashkil etgan. 2015-2024-yillar mobaynida respublikamizda faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ro‘yxatdan o‘tganlar sonidagi ulushi 56,2 foizdan 60,8 foizgacha hamda iqtisodiyotda ish bilan band bo‘lganlar umumiy miqdoridagi ulushi 74,8 foizgacha o‘sganligini ko‘rsatmoqda [1].

Tadqiqotlarimiz soliq yukini pasaytirishga oid amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida 2015-2023-yillar mobaynida respublikamizda faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ro‘yxatdan o‘tganlar sonidagi ulushi 56,2 foizdan 60,8 foizgacha hamda

iqtisodiyotda ish bilan band bo'lganlar umumiy miqdoridagi ulushi 74,8 foizgacha o'sganligini ko'rsatmoqda [1].

Soliq munosabatlarini tartibga solish mexanizmlari davlat va soliq to'lovchilar manfaatlariga mutanosib bo'lishi maqsadga muvofiq. Aks holda, soliq to'lovchilar soliq qonunchiligida mavjud bo'shliqlardan foydalanish evaziga yoxud soliq to'lashdan bo'yin tovlashning yangi usullarini qo'llash hisobiga soliqlar to'lamaslik yo'llarini qidirishga majbur bo'ladi.

Soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirish, uning shaffofligi, soliq munosabatlari bo'yicha manfaatdor idoralar bilan hamkorlik budjet-soliq siyosati samaradorligini ta'minlaydi [2; 18, 7; 28].

Shuning uchun mamlakatda soliq ma'muriyatchiligini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari:

- soliq siyosatini takomillashtirish va iqtisodiyotda xufyona aylanma darajasini qisqartirish [3; 13, 9; 158];
- xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan soliq xizmatlarini rivojlantirish;
- soliq tavakkalchiliklarini baholash tizimini joriy qilish va soliq hisobini takomillashtirish;
- soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish;
- soliq xizmati organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini rivojlantirish hisoblanadi.

Soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda vujudga kelayotgan asosiy muammolar tahlili tadbirkorlikni yanada rivojlantirish va davlat budjeti daromadlari barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi [4; 11].

Soliq tizimining samarali faoliyat yuritishining asosiy mezonini budjetning daromad qismini shakllantirishda soliq tushumlarining ulushi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining soliqqa tortish va soliq munosabatlarini tartibga solish tizimi 30 yildan ortiq tarixga ega bo'lishiga qaramasdan, soliq tizimi samaradorligi hamon yetarli darajada emas [11; 54, 12; 19]. Buning asosiy sababi soliq tizimi uzoq vaqt davomida asosan davlatning fiskal vazifalarini bajarishga qaratilganligidir. Ushbu davrda yuqorida qayd etilganidek, soliq to'lovchilarni soliqlarni maksimal darajada to'lashga majburlashning turli mexanizmlari faol qo'llanildi. Soliq organlarining ustuvorligi ularning nazorat faoliyati huquq va vakolatlarining yuqoriligida edi. Shu bilan birga, soliq to'lovchilarning manfaatlari deyarli hisobga olinmagani sababli ular soliq jarayonlarida passiv ishtirok etgan. Buning natijasida soliq tizimida soliq huquqbuzarliklari sonining ko'payishi va yashirin iqtisodiyotni kengayishi kabi salbiy hodisalar ko'paygan [5; 53].

Mamlakatimizda soliq ma'muriyatchiligini rivojlantirish konsepsiyasining umumiy tendensiyasi soliq to'lovchilar va soliq organlari o'zaro manfaatli hamkorligini shakllantirish orqali soliq to'lovchining davlat va soliq organiga bo'lgan ishonchini oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Umuman olganda bu undiriladigan soliqlar va yig'implarning ijobiy o'sishiga olib keladi [6; 31]. Xalqaro hamkorlik darajasida soliq ma'muriyatchiligi sohasidagi o'zaro axborot almashish amaliyotini davom ettirish kerakligi soliq bazasining bir yurisdiksiyadan boshqa yurisdiksiyaga soliq to'lashdan bo'yin tovlash maqsadida o'tish mumkinligi bilan asoslanadi [8; 95, 13; 54]. Bundan tashqari sayyor soliq tekshiruvlari jahon amaliyotidan kelib chiqqan holda xo'jalik yurituvchi subyektlarning joriy faoliyatiga umuman ta'sir ko'rsatmasligi lozim.

Rasmiy soliq to'lovchilarga to'g'ri keladigan soliq yukini yengillashtirish va norasmiy (yashirin) faoliyat yuritadigan shaxslarga nisbatan jazoning muqarrarlik tamoyilini ta'minlashga xizmat qiladigan tizim ishlashi mamlakat soliq ma'muriyatchiligining muhim yutuqi hisoblanadi.

Soliq munosabatlari tizimini tartibga solish amaliyoti va muammolari to'g'risidagi masalalarini o'rganish natijalari bo'yicha quyidagi firkalarga kelish mumkin.

1. Mustaqillikning o'tgan davri mobaynida milliy davlatchiligimizga mos soliq qonunchiligi shakllandi va bosqichma-bosqich rivojlantirib borilmoqda.

2. Soliq huquqiy munosabatlar subyektlari soliq qonunchiligida belgilangan muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan jismoniy shaxslar hamda yuridik shaxslardir. Bir tomondan ular soliq to'lovchilar, ikkinchi tomondan esa soliq nazorati vakolatlarini amalga oshirish huquqiga ega soliq xizmati organlaridir. Soliq munosabatlar subyektlarini bunday tasniflash soliq munosabatlarini huquqiy tartibga solishni xususiy va davlat tamoyillari nisbati jihatidan taqsimlanishini ifodalaydi.

3. Soliq munosabatlari – davlat hamda soliq to'lovchilar o'rtasida soliq majburiyatlari va ularning ijrosi bo'yicha paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar tizimidan iboratdir.

4. Soliq munosabatlari davlat va soliq to'lovchilar o'rtasida yuzga keladigan munosabatlardir. Ushbu munosabatlarning o'ziga xos xususiyati – mulkdordan qonun bilan belgilangan miqdordagi mablag'ni budjetga o'rnatilgan tartiblarda majburiy ravishda undirish hisoblanadi.

5. Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishga qaratilgan yana bir muhim islohot soliq to'lovchilarga interaktiv xizmatlar ko'rsatish tizimini yangi bosqichga olib chiqish hisoblanadi. Ushbu axborot kommunikatsiya tizimining yangi talablar asosida qayta ko'rib chiqish natijasida soliq to'lovchilar soliq majburiyatlarini bajarishda soliq organlari bilan internet tizimi aloqalaridan foydalanish imkoniyatlari keskin oshdi. Natijada, soliq ma'muriyatchiligi osonlashishi bilan birga uning samaradorligi oshishi va nazorat xarajatlari ham kamayadi.

6. Kameral soliq tekshiruvi soliq nazorati shakllari ichida samaradorligi yuqorisi hisoblanadi. Buning asosiy sababi soliq auditing davriyligi bilan bog'liq bo'lib, soliq tekshiruvi uchun belgilanishi mumkin bo'lgan davr mobaynida soliq to'lovchi o'z faoliyatini "uyqu rejimiga" o'tkazadi. Natijada soliq tekshiruvining natijadorligi yuqori bo'lishi qo'shimcha hisoblangan soliqlarni undirish darajasi pasayishiga olib keladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari // stat.uz.
2. Amir Temur. Temur tuzuklari. – T.: O'zbekiston, 2011. – 143-bet.
3. Смит А. Исследования о природе и причинах богатства народов. – М., 1935.
4. Троянская М.А. Совершенствование налогового администрирования как резерва роста доходов бюджета // АНИ: Экономика и управление, 2017. –№ 2 (19). – С. 274-278.
5. Денищенко М. Н. Содержание налогового администрирования, его формы и методы // Сб. науч. трудов СевКавГТУ. Серия «Экономические науки». Вып. № 14.
6. Османова Н.А. Налоговое администрирование для направления «Экономика». Учебное пособие. – Махачкала, 2013.
7. Романова И. Б. Налоговое администрирование: учеб. пособие. – Ульяновск: УлГУ, 2018.
8. Ibragimov B.B. Soliq ma'muriyatchiligi va uni davlat tomonidan tartibga solishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati // O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi jurnali, 2022. – B. 93-94.
9. Исроилов Б.И., Ибрагимов Б.Б. Солиқ мажбуриятлари тўғрисидаги ахборотлар тақдим этишни тартибга солишнинг долзарб масалалари / Республика илмий-амалий конференция тўплами, 2014. Ўз.Р.БМА.
10. Tuxliyev B.K., Agzamov A.T. Soliqlar va soliqqa tortish. (Darslik). – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2022.
11. Bazarov Q.T. Soliq ma'murchiligi. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2021.
12. Xudoyqulov S.K. Soliq statistikasi va prognozi (Darslik). – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2022.
13. Tuxliyev B.K., Rahmatullaev B.A. Xalqaro soliqqa tortish prinsiplari (Darslik). – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2022.